

Tarmoq korxonalarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda

// 08 July 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoq-korxonalarida-energiya-samaradorligini-oshirish-bo-yi>



Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni tejash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sanoat korxonalarining ustuvor yo'nalishlardan biri.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 29-apreldagi "2026-yilda energiya samaradorligini yanada oshirish, energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida "O'zkimyosanoat" AJ tizimida amaliy ishlar davom ettirilmoqda.



Xususan, “Navoiyazot” AJ bilan “O‘zbekenergota‘mir” AJ o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Hamkorlik doirasida korxonadagi ishlab chiqarish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bug‘ qozonlarining texnik holati atroflicha o‘rganilib, ularning energiya samaradorligini oshirish, kuz-qish mavsumida ularning uzluksiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash bo‘yicha kompleks texnik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan texnik tahlillar asosida qozon qurilmalarining ishonchli ishlashini ta'minlash, foydali ish koeffitsiyentini oshirish, energiya yo'qotishlarini qisqartirish hamda ekspluatatsiya samaradorligini yanada yuksaltirishga qaratilgan ishlar bosqichma-bosqich bajarilmoqda.



Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bunday amaliy ishlar nafaqat korxonalarning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, balki mamlakatimizda energiya tejamkorligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.